

KESH-SHAHRISABZ TEMURIYLAR DAVRI MUARRIXLARI NAZDIDA

Allayorova Sevinch Erkinovna

Qarshi Davlat Universiteti Tarix fakulteti

3-kurs talabasi

Annotatsiya: Istiqloq bergan keng imkoniyatlar esa Amir Temur va temuriylar davri tarixini xolisona o'rganishni taqozo etdi. O'tmishda yashagan buyuk siymolar va ularning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida va ilm-fanda erishgan yutuqlarini kelajak avlodga etkazib berishda albatta tarix fani va mazkur fan olimlarining o'rni va roli juda muhim hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Kesh-Shahrisabz, Hudud ul-olam, Amir Temur, Temuriylar, ilm-fan, Hamadon, muarrixlar, tarix.

Kesh-Shahrisabz tarixiga oid manbalarga Abu Ja'far Muhammad ibn Jaofir at-Tabariy (839-923)ning "Tarix ar-rasul va-l-muluk" (Tarixi Tabariy), Abu Zayd Balxiy (850-934), Istahriy (850-934) va Ibn Xavqal (vaf.977) ijodiga mansub geografik asar "Kitob al-masolik va-l-mamolik", muallifi noma'lum "Hudud ul-olam", Abu Bakr Muhammad Narshaxiyning (899-959) "Buxoro tarixi" (943-944), Abu Rayhon Beruniyning (973-1048) "Qonuni Mas'udiy", Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad as-Sa'moniyni (1113-1167) "Kitob al-ansob", Yoqut Hamaviyning (1178-1229) "Musjam ul-buldon", Juvayniyning (XIII asr) "Tarixi jahonkushoy", Ibn al-Asirning (1160-1234) "Al-komil fist tarix", Rashididdin Fazlullohning (1247-1318) "Jome' ut-tavorix", Ibn Battutaning "Sayohatnoma" ("Tuhfat an-nuzzor...") asarlari kiradi

Masalan, muallifi noma'lum "Hudud ul-olam" (982-983) asarida ta'kidlanganidek; "Kash iqlimi issiq shaharcha, unda yomg'ir ko'p yog'adi, Shahrison, ko'handiz va rabadi bor. Shahar darvozasi oldidan ikkita daryo oqib o'tadi, (suvi) ekinlarga ishlatiladi. Uning tog'larida (har xil) minerallar bor, jumladan, tarang-ubin va qizil tuz; uni butun jahonga olib ketadilar. Yaxshi tuyalar boqiladi¹.

Shuningdek, Kesh (Shahrisabz) o'tmishi Temuriylar davri tarixiga oid manbalarda ham ancha anchagina yoritilgan. Mazkur manbalarda "Kesh" toponimi bilan birga "Shahrisabz" atamasi ham qo'llanilgan. Sohibqiron Vatanining Shahrisabz deb atalishi bejiz bo'lmay, mashhur shahar haqiqatan yam-yashil, er, suv, bahavo jannatmakon hududda joylashgan. Islomiyat davrida shahar ilmlar markazi sifatida "Qubbatul-ilm val adab", ya'ni "Ilm va adab gumbazi" degan sharafli nom bilan mashhur edi.

¹ Shahrisabz: ming yillar merosi. T.: "Sharq", 2002. B.148-149.

Temurbek tavallud topgan yurti Shahrisabzda uning hokimiyatni egallab, Samarqandga poytaxtni ko'chirguncha bo'lgan davrida uning yoshligi shu azim shaharda o'tganligi sababli mazkur shaharni obodonlashtirishga katta e'tibor bergan. Shahrisabzning Temuriylar davri tarixi Nizomiddin Shomiy, Hofizi Abro', Sharafuddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Rui Gonsales de Klavixo, Abdurazzoq Samarqandiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Haydar Mirzo asarlarida yoritilganki, quyida ularga qisqacha to'xtalamiz.

Nizomiddin Shomiy. Muarrixning “Zafarnoma” asari bevosita Amir Temur topshirig'i asosida 1402-1404 yillarda yozilgan. Farmonga ko'ra, Nizomiddin Shomiy Sohibqiron haqida ilgari tuzilgan tarixlar asosida bitta ixcham va yaxlit kitob yaratishi lozim edi. “Zafarnoma”da Shahrisabzda XIV asr 60-yillaridan boshlab tarixiy ma'lumotlar mavjud. Unda Tug'luq Temur farmoniga ko'ra Shahrisabz va unga tutash hududlar Jayhun (Amudaryo)gacha Amir Temurga mulk qilib berilganligi, keyinchalik uning mo'g'ullarga qarshi kurashlari, Amir Husayn bilan jangu jadallarining bir qismi Kesh va atrof hududlarida sodir bo'lganligi yoritilgan. Va Sohibqironning Shahrisabzdagi ulkan bunyodkorlik ishlari haqida ham yorqin ma'lumotlar mavjud. Muarrix mazkur asarida yozadiki: “Bahor fasllari kelgach (1380 yil), Kesh shahri qurilishiga (Sohibqiron Amir Temur) oliy farmon berdi va bu erda qo'rg'on barpo etdi. Shu o'rtada Oqsaroyini ham bino qildilar, uning peshtoq va ravoqlarini Ayyuq (Yulduziga) etkazdilar, chunonchi biron kimsa jahonda unga tengi keladigan imoratni qurmagan va eshitmagan Sohibqiron 1396 yil 6 iyunda Hamadon viloyatida Iyd bayramini tantana qilgach, Samarqandga qaytishga qaror qilgan². Amudaryodan o'tib, Xuzorga kelgan. U erda Saroy mulk xonim, Shohrux Mirzo oqolar bilan uchrashgan. Hammalari Keshga yo'l olishgan. Bu haqda Nizomiddin Shomiy yozadi: “Sohibqiron bir necha kun Kesh viloyatida, oqsaroyda turdi, to'ylar qildilar, ayshu ishrat dodini surdilar, shodlik va xursandchilik bilan kun o'tkazdilar”

Hofizi Abro' (vaf. 1430). “Geografiya” (1420) va “Zubdat ut-tavorixi Boysunquriy” (1423-1427), “Zayli Zafarnomai Shomiy” (1412) asarlari muallifidir. U o'z bitiklarida Kesh haqida tarixiy-geografik dalillarni, Amir Temur davrida shaharda qurilgan binolar – Oq saroy, Dorus-siyodat, ko'plab madrasa, xonaqoh, rabotlar, hovuzlar, bog'-rog'lar haqida ma'lumotlar bergan.

Hofizi Abro' “Amir Temur Sohibqiron Shahrisabzda serhasham g'ishtin binolar qurishga amr qildi, ular orasida Dor us-Siyodat ayniqsa ulug'vordir”, degan fikrni bayon etgan. Muarrix qayd etganidek, Keshda ilgarilari hamma imoratlar loy va yog'ochdan qurilgan, pishiq g'isht deyarli ishlatilmagan. Amir Temur 1378 yili Kesh qo'rg'onini devor bilan o'rash rejasini vazifa qilib qo'ygan. Devor tagligi 8-9 gaz enlikda bo'lib, balandligi 4 nayza baravarida bo'lgan. Qal'a devorlari, burju darvozalari

² Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. T.: “O'zbekiston”, 1996.

Amir Temurning amri bilan va shaxsan rahbarligida qurilgan devorning uzunligi taxminan 5 km bo'lsa, tarxi 770x1730 metr masofadagi to'g'ri to'rtburchak qal'a edi: har tarafda ko'shk minora, peshtoqli darvozaxona orqali shaharga kirish mumkin bo'lgan. Muarrir shahar mavzei 20 km.li qal'a devorlari bilan o'ralganligini ham yozgan. U "Geografiya" asarida yozganidek; "Kesh. Uni Shahrisabz ham deydilar: yilning aksariyat faslida uning eri ko'm-ko'k (maysazor)dir. Ayniqsa bahor faslida uning havosi toza va ko'chalari yam-yashil bo'ladi". Shuningdek, "Zubdat at-tavorix" da Amir Temurning shajarasi, Kesh (Shahrisabz)da yashagan va keyingi avlodlari haqida ham bayon etilgan. Ushbu manbada Sohibqiron vafotidan so'ng Samarqand taxtini egallagan Xalil Sulton bilan Mirzo Sulton Husayn o'rtasida 1405 yil Kesh viloyatidagi muhoraba tafsiloti ham yoritilgan³.

Sharafuddin Ali Yazdiy (vaf.1454). Muarrirning "Zafarnoma" (1424-1425) asari Mirzo Shohruxning o'g'li Ibrohim Sulton buyrug'i va bevosita rahnamoligida yozilgan. Muarrir o'z "Zafarnoma"sida (1419-1425) aniq ma'lumotlarga boyligi va yuksak badiiy mahorat bilan yozilganligi bilan boshqa manbalardan ustun turadi. "Zafarnoma"da Shahrisabzga oid ma'lumotlar ham ancha batafsil bayon etilgan. Alloma yozganidek: "Bahor vaqti ul shaharning tomu-toshi ko'm-ko'k bo'lur va ko'k ko'rung'on jihatidin anga Shahrisabz ot bo'lub turur"⁴ Chunonchi, Amir Temurning shu shahar yaqinida tavallud topgani, o'sib ulg'ayib, mo'g'ullar istilosiga qarshi kurashgani, Amir Husayn bilan munosabatlari, mazkur shaharni obodonchiligi, bunyodkorligi bo'yicha faoliyati yorqin o'z aksini topgan. Amir Temur davrida bayram, to'y-tomoshalar, asosan, Samarqand, Shahrisabz va Hirotida o'tkazilgan. Masalan, 1363 yilda Amir Temur Amir Husayn bilan Shahrisabzda qurultoy tuzib, uning sharafiga to'y bergan. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, Kesh-Shahrisabz shahrida payg'ambar hadislarini to'plovchi va sharhlovchi etuk muhaddislar juda ko'p bo'lgan. Bular orasida Hazrati Imom sifati bilan elga tanilgan Ibn Nasr al-Keshiy (vaf. 865). Keshning janubi-sharqiy tomoniga dafn etilgan. Bu xonaqoh Hazrati Imom nomi bilan ataladi. Muarrir yozganidek, "Sichen (maymun) yilda, torix eti yuz seksan birda (1380) ul shaharga qal'a soldurdi va jahdlab tamom qildurdi. Va andoq shahri bo'ldikim, gardun Muhandisi muncha yoshi bilan olamni kezib, hech bir erda mundoq shahar va ko'shk qurmagan turur"

Muarrir Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida yozishicha, "Ilmu adab qubbasi" sifatida shuhrat qozongan Shahrisabzga boshqa mamlakatlardan Amir Temur davrida tolibi ilmlar kelishgan. Shahrisabzga Movarounnahrning taniqli

³ Hofizi Abro'. "Zubdat at-tavorix" dan. Omonulla Bo'riev tarjimasini. Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. T.: "O'qituvchi", 1996. B.209-310; "Geodeziya" dan. Fors tilidan Omonulla Bo'riev tarjimasini. - Temuriylar bunyodkorligi davri manbalarda. T.: "Xalq merosi", 1996. B.76-81

⁴ Sharafuddin Ali Yazdiy – Zafarnoma. So'z boshi, tabdil, izohlar va ko'rsatkichlar mualliflari A.Ahmad, H.Bobobekov. T.: "Sharq", 1997. -387 b

mudarrisleri kelib o'rnashganligi va tahsil berganligi bu joyda keyinchalik mashhur olimlarning etishib chiqishiga zamin tayyorlagan. Ayniqsa, fiqh ilmi borasida Keshdan taniqli olimlar chiqqan.

Muarrir mazkur asarining “Sohibqiron saodatmand Kesh qal’asini solib, Oqsaroy imoratini buyurg’oni faslida shunday qayd etganki: “... Kesh shahri burun ulamoi Islomning eri ermish va buzrugvor muhaddislardin uch imom anda vatan qilg’on tururlar: biri Abu Muhammad (Abdulloh ibn Abdulhamid ibn) Nasr (Ibn Humayd) al Kashshiy) va yana biri (Abu Muhammad) Abdulloh ibn Abdurrahmon al Doramiy as-Samarqandiy va Abu Abdulloh ibn Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, raziyallohu anhum. Ul mahalda olim ahli mas’ala va masoili diniy uchun atrof olamdin Kesh viloyatig’a kelur ermishlar. Va ul jumladin Abu-l Husayn Muslim ibn Hajjoj al-Qushayriy an-Nishopuriy kelib Abdurrahmon ibn Humayd al-Kashshiy qoshig’a istifoda qilg’on turur va ko’b aimma va afozil anda bo’lg’on ermishlar va barchaning darslari bor ermish. Bu jihatdin Keshni “Qubbatul ilm-val adab” laqabi bo’lub turur”.

Yuqorida nomlari zikr etilgan buyuk allomalarni izohlasak, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdulhamid ibn Nasr ibn Humayd al-Keshiy (vaf. 863) - keshlik mashhur muhaddis, tafsirchi, hanafiy faqih. Ko’p shogirdlari bo’lgani, bir necha asar yozgani ma’lum.

Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdurrahmon ad-Doramiy as-Samarqandiy (797-869)-samarqandlik mashhur muhaddis, faqih va tafsirchi; arab mamlakatlarida bo’lgan; fiqh va hadislarga oid 4 ta asar yozgan.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870) – o’rta asrlarda eng mashhur muhaddis “Al-Jomi’ as-Sahih”, ya’ni “Sahihi Buxoriy”ning muallifi. U hadis, fiqh, tarix va adabiyotga taalluqli 15 ga yaqin asar yozgan. Abu Husayn Muslim Hajjoj al-Qushayriy an-Nishopuriy-IX asrda yashagan muhaddis, faqih va adib. Temurbek Keshga alohida bir mehr bilan qaragan. U doimo harbiy yurishlar oldidan va bunday yurishlar tugaganidan keyin, albatta, Keshda to’xtagan va bu erdagi otasi, vafot etgan o’g’illari, ustozlari qabrlarini ziyorat qilgan. Muarrir Sharafuddin Ali Yazdiy 1396 yil 18 iyunda Sohibqironning besh yillik yurishidan so’ng Samarqandga qaytayotganida Shahrizabzga tushganligini bayon qilgan: “Amuy suyig’a etib, kema bilan o’tub Xuzor viloyatida kelib tushdi. Haramlari Saroy Mulk xonim, va Tuman og’o va o’zga og’olar, oliyo Sultonbaxt begim va shahzoda Shohrux bila o’trov chiqib kelib, davlati diydoriga musharraf bo’ldilar. Va andin hazrat sohibqiron ko’chub, Kesh viloyatiga kelib, o’zi solg’on ko’shkda tushti. Va barchaning umid ko’zlari muborak deb darim yahroq bo’lub, g’amgin ko’ngillari jo bo’lib, xurram bo’ldilar. Va tonglasi otlanib, mutabarruk mazorlarning tavofiga bordi. Avval Shayx Shamsuddin Kulor mazoriga borib tavof qildi va andin so’ng o’zga azizlarning mazorlarig’a borib tavof qildi va andagi mujovirlari bila faqiru miskinlarg’a ko’b sadaqalar berdi. Andin atosi Tarag’aybekning mazorig’a, va o’g’li mirzo Jahongir va qarindoshlarining mazorlariga borib tavof qildi.

Hofizlar Qur'on o'qub, duo va takbir qildilar. Hofizlarg'a ko'b nimalar shafqat qildi. Va har erdinkim, ulamolar va fuzalolar kelib erdi, barchani lutfu in'om bila xushvaqt qildi. Podshohzodalar va beklar barcha Oqsaroyda to'y etib ayshu ishratqa mashg'ul bo'ldilar”.

Amir Temurning Shahrisabzga ixlosi juda balandligi sababli u doimo yirik harbiy yurishlari oldidan va janglarda zafar quchib qaytgach, albatta ota shahriga kelgan. Ustozlari, otasi, o'g'illari va boshqa xesh-aqrabolari xoklarini tavof qilgan. Va turli tomosha va marosimlar uyushtirgan. Bu haqda muarrix Sharafuddin Ali Yazdiy Sohibqironning 1397 yil sentyabrda Keshga kelganligini ishonarli tasvirlangan: “Sha'bon oyida, mazkur bo'lg'on yilda o'tlanib, Yom rabotining yo'lidin yurub, Kesh jilg'asiga tushub, oq uy va chodirlar tiktirub o'ltirdi va ayshu ishrat bilan necha kun farog'at qildi. Va andin ko'chub shaharg'a borib, Oqsaroyga tushti va muborak Ramazonni anda o'tkardi”⁵.

Muarrix yana shularni yozadi, “Seshanba kuni (07.04.1399) Kesh viloyatig'a kirib, Shayx Shamsuddin Kulor mozorig'a borib tavof qildi. Andin chiqib o'zga mashoyixlarning mozoriga borib tavof qildi. Andin so'ng atosining mozorig'a borib tavof qildi, ko'b sadaqalar berib, faqiru miskinlarga inoyatlar qildi. Va o'n besh kun Oqsaroyda o'lturub, ayshu farog'at qildi.

Muarrix Sharafuddin Ali Yazdiy Sohibqironning 1404 yil yozida Jayhundandan o'tib, Termizga tushgani, Kahlag'a, Chekdalikdan o'tib, Dulburji mevzesi orqali Shahrisabzga kelganligini shunday tasvirlagan: “Va andin Kesh shahriga borib Oqsaroyda tushti. Va anda o'lturmay Shayxi buzrugvor Shayx Shamsuddin Kulor mazorig'a borib tavof qildi. Va andin otasi Tarag'aybekning mazorig'a kelib, ziyorat qildi. Anda xatm va duo qilib, o'tlanib, uqbadin o'tub, Taxi Qarocho bog'iga kelib tushti”.⁶

Ibn Arabshoh. Arab muarrixi Ibn Arabshohning to'liq nomi Shamsuddin Ahmad ibn Muhammad ibn Abdulloh ibn Ibrohim bo'lib, uning (1389-1450) “Ajoib al-maqdur fi-tarixi Taymur” (“Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”) asarida (1436) ilk bor Amir Temurning tavallud topgan aniq joyi Xo'ja Ilg'or qishlog'i ekanligini qayd etgan.⁷ Amir Temur davrida Shahrisabz ham ilm-fan markaziga aylanib, mashhur olimlar faoliyat yuritishgan. 12 yasharligida Samarqandga keltirilgan damashqlik Ibn Arabshoh 1401 yilda Samarqandga kelganida Sayyid Sharif Jurjoniyydan, Shamsuddin al-Jazariyydan tahsil olgan. U keyinchalik “Ajoib al-maqdur fi-tarixi Taymur” (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari) nomli mashhur kitobini yozgan.

⁵ Shu asar. B. 85-87

⁶ Sharafuddin Ali Yazdiy. Shu asar. B.88

⁷ Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur” (“Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”) So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni U.Uvatov tayyorlagan. k. 1. T.: “Mehnat”, 1992. B.168.

Ibn Arabshoh o'z kitobida yozadiki; “Temur tengi yo'q, fe'l-atvorli, chuqur mulohazali kishi bo'lib, uning tafakkur dengizi qa'ri yo'q. ... olimlarga mehribon bo'lib, sayyidu shariflarni o'ziga yaqin tutadi. Ulamolar va fuzalolarga izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan muqaddam ko'radi. Uning har birini o'z martabasiga qo'yib, o'z izzatu hurmatini unga izhor etardi. Temur har qanday hunar va kasb bo'lmasin unda agar biron fazilat va sharofat bo'lsa, shu kasb egasiga alohida mehr qo'ygan edi”⁸

Rui Gonsales de Klavixo (vaf. 1412). Ispaniya (Kastiliya) qiroli elchisi Rui Gonsales de Klavixoning Samarqandga-Temur saroyiga qilgan (1403-1406 yillar) sayohat “Kundaligi”da 1404 yil avgust oyi oxiridan to kuz mavsumi davomida dastlab Shahrisabz, so'ngra Samarqanddagi taassurotlari bayon etilgan. “Kundalik”da Kesh (Shahrisabz)da Amir Temur davrida barpo etilgan ko'plab saroy, ko'shk, madrasa, xonaqoh, bog'lar haqida zarur ma'lumotlar yoritilgan⁹

Ispaniya (Kastiliya) elchisi Rui Gonsales de Klavixo 1404 yil avgust oxirida Shahrisabz shahri obidalarini ko'rib hayratga tushgan va ta'riflashga ojiz qolib, shuni yozgan: “Bo'lma va xonalarga zarhal, zangori va boshqa xil buyoqlar bilan zargarona hal berilganki, chevar ustalarga ega bo'lgan Parij ham bu naqshlardan hayratga tushishi hech gap emas”

Elchi Klavixo Kesh shahrini “Katta shahar” deb ta'riflagan. Jumladan, u 1404 yil avgust oyi oxirida Shahrisabzga kelib, u erdan olgan taassurotlarini shunday bayon etgan: “Ertasiga, 28 avgust, payshanba, Kesh deb atalgan kattakon shaharga keldik. Kesh tekislikda joylashgan, bag'rida ko'plab ariqlar va anhorlar oqadi, shaharda bog'lar va uylar ko'p. Aholi zich yashaydigan qishloqlar, ko'm-ko'k o'tloqzorlardan iborat, suvga serob bu tekislik yozda juda chiroyli manzara kasb etsa kerak. Tekis, sug'oriladigan dalalarga g'alla, uzum, paxta, qovun, tarvuz ekilgan, hammayoqda tokzorlar va mevali bog'lar. Shahar atrofi tuproq qo'rg'on va chuqur handaqlar bilan o'ralgan. Shaharga kiriladigan darvozalar oldida ko'tarma ko'priklar bor”.

Shahrisabzda aholi tig'iz joylashgan bo'lib, ularning aksariyatini hunarmandlar tashkil etardi. Hunarmandlarning bir qismi boshqa yurtlardan ko'chirib kelitirilgan edi. Shahrisabz, Qarshi madrasalarida Amir Temur davrida ta'minot ham ancha yaxshi bo'lgan. Bu esa mazkur shaharlarda aholining turmush sharoiti etarli bo'lganligidan dalolat beradi. Elchi shahardagi muhtasham imoratlar haqida ham yozgan. Qal'a devorlari, burjudarvozalarini Amir Temur qurdirgan. Sohibqiron tavallud topgan ota yurti Kesh (Shahrisabz)da ham keng ko'lamlil obodonchilik ishlari olib borgan.¹⁰

⁸ Ibn Arabshoh. Ajoib al-maqdur fi-tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari) k.2. T., 1992. B.69-71

⁹ Rui Gonsales de Klavixoning Samarqandga-Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar) T.: “O'zbekiston”, 2010

¹⁰ Bo'riev Omonulla. Sohibqiron Amir Temur. T.: “O'zbekiston”, 2011. B.90-91.

Klavixo “Kundaligi”da yozganki, Kesh oqar suvlar, o'tloqlar, bog'-rog'lar, ekinzorlar, gavjum qishloqlar o'rnidagi obod katta shahar ekanligi, uning qo'rg'on devori, minoralari hamda chuqur xandaqlari mavjudki, shahar darvozalari oldida handaq ustiga ko'tarma ko'priklar qurilgan. Elchi Kesh shahrida Amir Temur farmoni asosida qurilayotgan turli imoratlar, ayniqsa Oqsaroy majmuasiga ancha kengroq sifat bergan: “Bu qasr (Temurbek) shu paytgacha barcha imoratlar ichida eng mahobatlidir” Klavixoning yozishicha, Oqsaroy 20 yil mobaynida qurilgan. Elchi Keshga tashrif buyurgan 1404 yil avgust oxirida ham pardoqlash ishlari hamon davom etayotgan edi: “Ertasi, juma kuni elchilar Keshdagi yana bir mahobatli saroyni tomosha qilishdi. Podshoning amri ila bunyod etilayotgan bu koshona qurilishi, aytishlaricha, yigirma yildan beri har kuni, tinimsiz davom etadi. Shu kunlarda ham (bu erda) ko'plab ustalar ishlardi. Saroyga juda uzun yo'lakdan, bag'oyat baland darvoza orqali kiriladi. Yo'lakning ikki tomonidan g'ishtin ravoq jimjimador, guldor koshinlar bilan bezatilgan. Ravoqlar ostida ochiq, kichik ayvonsimon joylar bo'lib, oldida koshinlardan supa qilingan. Ayvonlar podshohni kutib oluvchilarning o'ltirishiga mo'ljallangan. Shundan so'ng navbatdagi eshikdan katta hovliga chiqiladi. Hovli sahniga oppoq tosh taxtaxtalar to'shalgan, har ikki yonida hashamatli ayvonlar. Hovlining o'rtasida katta hovuz jilolanib turibdi. Hovli sahnining kengligi uch yuz qadam keladi. Mazkur hovlidan bag'ri keng uyga kiriladi. Uyning juda baland va keng ochiladigan eshigi zarhal va lojuvard buyoqlar hamda chiroyli koshinlar bilan bezatilgan. Eshikning tepasidagi devorda o'rta qismida quyosh nuri ko'lamida aks ettirilgan sher tasviri bor. Eshikning chetlariga ham xuddi shunday suratlar chizilgan. Bu ramziy belgi Samarqand podshosining rasmiy tamg'asi hisoblanadi.

Shahardagi XV asr birinchi choragida tashrif buyurgan Xitoy elchilari Dor us-Siyodatni “ajoyib ibodatxona” deb ta'riflaganlar. Ularning so'zlariga qaraganda, Shahrisabz “ibodatxonasining eshik va derazalari oltin, turli rangdor shishalar va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan”.

Mazkur obida haqida elchi Klavixo o'z kundaligida yozadiki: “Shaharda katta uylar, masjidlar ko'p, xususan Temurbek tomonidan qurilgan bir masjid alohida ajralib turadi. Masjidning qurilishi hali tugamagan. Unda Temurbekning otasi dafn etilgan maqbara bor. Temurbekning amri bilan o'zi uchun qurilayotgan hali bitmagan. Aytishlaricha, bir oy oldin bu erdan o'rgan Temurbekmaqbara qurilishining borishidan ko'ngli to'lmagan. Maqbaraning eshigi past ekanligini aytib, uni qaytadan ishlashni buyuradi. Hozir ustalar shu topshiriqni bajarish ustida ishlamoqdalar. Bundan tashqari, Temurning to'ng'ich o'g'li Yangir (Jahongir Mirzo) ham shu masjidda dafn etilgan (Shahrisabzdagi Hazrati Imom masjidi hududida Jahongir Mirzo qabri bo'lib, Dor us-Siyodat majmuasi deb ham ataladi).

Masjid va maqbaralar tillo, zangori buyoq va koshinlar bilan sayqallangan. Masjid oldidagi katta hovlida hovuz bor, (atrofida) daraxtlar o'sib turibdi. Podshoning

farmoyishiga binoan, masjidida har kuni yigirmata qo'y so'yilib, otasi va o'g'lining xotirasi uchun elga (xudoyi) osh beriladi. Elchilar shaharga kelishlari bilan ularni darhol ana shu masjidga boshlab keldilar. Go'shtlik taomlar, meva-chevalar keltirib mehmon qildilar”

Klavixo Keshdagi 20 yil davomida qurilgan mahobatli inshootlar qurilishiga baho bergan ekan, Parijning mohir ustalari ham bu ziynatlarni ko'rganda hayratga tushishini ta'kidlagan. Elchi o'z “Kundaliklar”ida Sohibqiron Kesh shahrida o'zi uchun xilxona qurdirganligini ham yozgan. Shuningdek Temurbekning otasi Amir Tarag'ay va to'ng'ich o'g'li Jahongir mirzo qabrlari ustiga maqbaralar soldirganligi haqida ma'lumotlar ham mavjud. Lekin Shahrisabzdagi imoratlarning bir qismigina xaroba holda saqlanib qolgan.

Abdurazzoq Samarqandiy (1413-1482). “Matlai sa'dayn va majmai bahrayn”. Muarrixning mazkur asariga (1467-1470) Temuriylar tarixini qamrab olgan muhim manbalardan biridir. Mazkur asar ikki jilddan iborat: birinchi jildi O'rta Sharq mamlakatlarning XV asrdagi tarixi, ikkinchi jild – Temuriylar saltanati (XV asr) tarixi. Asarda Kesh (Shahrisabz) tarixiga oid ma'lumotlar ham mavjud. Zero, Abdurazzoq Samarqandiyning “Xorazmlik ustalar baland saroy barpo etishdilarki, hozirgi kunda Oqsaroy nomi bilan ataladi”, deb yozishi bejiz emas albatta.

Amir Temur davrida Keshda bir qancha me'morchilik obidalari qad ko'tardi. Bular orasida Oqsaroy alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois XIV-XV asrlarga oid yodgorliklar orasida eng yirigi va noyobi bo'lgan Oqsaroy qurilgan davrdan boshlab jahonning turli tomonlaridan kelgan sayyohlarning kundaliklarida faxr bilan tilgan olingan. Urganch qo'lga olingandan keyin muarrix Abdurazzoq Samarqandiyning ma'lumotlariga ko'ra, “Amir Temur yaroqli barcha odamlarni Xorazmdan Movarounnahrqa ko'chirib, kesh shahriga joylashtirishga farmon berdi”. Jumladan Amir Temur vafotidan so'ng, Xalil Sultonning Samarqandda hokimiyatni egallaganligi sababli jiddiy nizolar kelib chiqqanligi va 1411 yilgacha Movaraunnahr uzil-kesil Shohrux Mirzo tasarrufiga o'tguniga qadar, bu o'lkada jangu-jadallarning aksariyat qismi Kesh va uning atroflarida sodir bo'lganligi yoritilgan.¹¹

Muhammad Haydar Mirzo (1499-1551)ning “Tarixi Rashidiy” asarida O'rta Osiyo va unga tutash hududlar tarixi, asosan, Mo'g'uliston xonlarining XV-XVI asr birinchi yarmidagi hukmronligi tarixi yoritilgan.

Asarda XVI asr boshlari voqealari asnosida Shahrisabz ham tilga olinib, “Shahrisabz” shaklida qayd etilgan. Ushbu asarga ko'ra, Shayboniyxon 1508-1509

¹¹ Abdurazzoq Samarqandiy. Matlayi sa'dayn va majmai bahrayn. 1405-1409 yil voqealari. T.: “O'zbekiston”, 2008; Shu muallif va asar 2-j. 2-3 qismlar. 1429-1470 yil voqealari. T.: “O'zbekiston”, 2008

yillarda Shahrisabzni iqto' tarzida Mirzo Haydarning otasiga bergan va u otasi bilan bilan shaharga ko'chib kelib, ma'lum muddat shu erda istiqomat ham qilgan.¹²

Keyingi davr manbalari hisoblanmish Muhammad Solih (1455-1535)ning "Shayboniyнома", Hofiz Tanish Buxoriyning (XVI asr) "Sharafnomayi shohiy" ("Abdullanoma"), muallifi noma'lum "Tavorixi guzida" ("Nusratnoma") (XVI asr), Zayniddin Vosifiyning "Badoi' ul-voqe", Abdulloh Nasrullohning "Zubdat al-asor", Muhammadyor ibn Arab Qattag'onning "Musaxxir al-bilod", Mahmud ibn Valining (XVII asr) "Bahr ul-asror"(1630-1640), Xoja Samandar Termiziyning (XVII-XVIII asrlar) "Dastur ul-muluk" (1695), Mir Muhammad Amin Buxoriyning (XVII-XVIII asrlar) "Ubaydullanoma", Abdurahmon Davlat Tole'ning (XVIII asr) "Tarixi Abulfayzxon", Mirza Abduazim Somiy Bo'stoniyning (1838-1914) "Tarixi salotini Mang'itiya" (1907), shuningdek mo'jor sayyohi X.Vamberining "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" (1990) kabi salmoqli asarlarida ham Shahrisabz shahri tarixiga oid muhim ma'lumotlar uchraydi¹³.

Xullas, qadimgi va hamisha navqiron Kesh-Shahrisabz o'tmishi Temuriylar davri muarrixlari diqqat markazida bo'lib, mazkur yashil shahar to'g'risida asarlarida teran ma'lumotlar berishganki, mazkur dalillar Vatanimiz tarixini o'rganishda eng muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shahrisabz: ming bir merosi. -T.: "Sharq", 2002. B. 151-153
2. Hofizi Abro'. "Zubdat at-tavorix"dan. Omonulla Bo'riev tarjimasida.
3. Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. T.: "O'qituvchi", 1996. B.209-310; "Geodeziya"dan. Fors tilidan Omonulla Bo'riev tarjimasida. - Temuriylar bunyodkorligi davri manbalarda. T.: "Xalq merosi", 1996. B.76-81
4. Sharafuddin Ali Yazdiy – Zafarnoma. So'z boshi, tabdil, izohlar va ko'rsatkichlar mualliflari .Ahmad, H.Bobobekov. T.: "Sharq", 1997. -387 b
5. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur" ("Temur tarixida taqdir ajoyibotlari") So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni U.Uvatov tayyorlagan. k. 1. T.: "Mehnat", 1992. B.168.
6. Rui Gonsales de Klavixoning Samarqandga-Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar) T.: "O'zbekiston", 2010
7. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlayi sa'dayn va majmai bahrayn. 1405-1409 yil voqealari. T.: "O'zbekiston", 2008; Shu muallif va asar 2-j. 2-3 qismlar. 1429-1470 yil voqealari. T.: "O'zbekiston", 2008

¹² Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. V.Rahmonov, Ya. Egamova tarjimasida. T.: "Sharq", 2010

¹³ Shahrisabz: ming bir merosi. -T.: "Sharq", 2002. B. 151-153